O`SPIRINLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jamanqulova Dilafruz Eshmuratovna
Samarqand viloyati Narpay tumani
MMTB ga qarashli 10-maktab psixologi

Annotatsiya Ushbu maqolada o'spirinlik davri haqida tushuncha,o'spirinlik davrida psixik rivojlanish va kasb tanlash haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari o'spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar bilan tanishasiz.

Kalit so'zlar: O'spirinlik. Kasb tanlash. Kasbga yo'llash. O'rtoqlik. Do`stlik. Oila haqida qayg`urish. Jamiyatga foyda keltirish orzusi.

O'smirlikdan keyingi navbatdagi bosqichni o'spirinlik davri deb hisoblashimiz mumkin. Hozir ko'pchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk o'spirinlik deb atashni ma'qul ko'rmoqdalar, bu umumta'lim maktabining 8–9 sinfidan boshlab, kasb–hunar kolleji va litseylarining 1–2–kurslariga to`g`ri keladi. Bu davrda o`quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach mutsaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o`zini sinab ko`radigan imkoniyatga ega bo`ladi. Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o'zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy his–tuyg'uning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi. Hayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb – hunar o'rganish, ixtisoslikni tanlash, itsiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qahramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi. Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini xarakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi

ziddiyatlardir.Turli qarama–qarshiliklar, ziddiyatlar o'spirinning axloqiy, aqliy, etsetik jihatdan tez o`sishi orqali bartaraf qilinadi. Ilk o'spirinlik yoshidagi yetakchi omil yuqori sinf o`quvchisi faoliyatining xususiyati, mohiyati va mazmunidagi tub burilishdir. O'spirin o`quvchida o`zini anglash zamirida o'z–o`zini tarbiyalash itsagi tug`iladi va bu ishning yo'llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O'zlariga ma'qul ma'naviy – psixologik qiyofaga ega bo'lish uchun oqilona o'lcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar. Bu yoshda shaxs sifatlari shakllanishida maktab muhiti, ayniqsa sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqurlar kuchli ta'sir etadi. Maktab va sinf jamoalari ta'sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, halollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi. O'spirinlarda mavjud bo`lgan yana bir muhim hislat ularda yuksak darajadagi do'stlik, o'rtoqlik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning qay darajada shakllanganligi tarbiyaviy ta'sir o'tkazish mezoni hisoblanadi. O'spirin o`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan har qaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga, amaliy xususiyatiga, o'zlashtirish imkoniyatiga va uni o'qitish metodikasiga bog'liq bo`ladi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo'l va vositalari ta'lim jarayonida yetakchi rol o'ynay boshlaydi. O'spirinlar topshiriklarni bajarishda, ularning ma'nosi xamda moxiyatini to`la anglab ish tutadilar, eslab qolish, saqlash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar. O'spirin barcha faoliyat bosqichida mutsaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Bu kamchilikni bartaraf qilishda dars jarayoni katta imkoniyatlarga ega. Darsda o'quv materialini bayon qilishda mazmuni ixcham, mantiqiy bog'langan bo'lishini ta'minlash, o`quvchining javobi albatta kitobdagiday, yodlab, olingan qoidalardan iborat bo`lib qolmay, uning «o'z so`zi bilan»

izohlanishini talab qilinishi kerak. Tinglangan yoki o'qilgan materialda mutsaqil xulosa chiqarishni talab qiladigan holatlar bo'lishiga aloxida e'tibor berilishi kerak. Endigina o`sib kelayotgan o'spirin o`quvchilar kasbga qanday yondoshadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi ug'il-qizlar hayotda mutsaqil qadam tashlash to`g`risida aniq asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to`g`ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavakkaliga ish ko`radilar. Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, jiddiy – ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. O`quvchilar maktabda fanlarning asoslaridan bilim oladilar, har qaysi o'spirin fizika yoki matematika bilan tanishadilar. Biroq ularning xammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xoxlayvermaydi. Maktabda yer kurrasini o'rganiladi, biroq barcha o`quvchilar sayyoh bo'lishni istamaydi. Katta yoshdagi maktab o`quvchilaridan biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularga xar – xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Yuqori sinf o`quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to`g`ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak. O'rta maktabni bitirgunicha hamma o`quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb – hunarga xar-xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir. O'spirinlarda kasblar hakida yaqqol tasavvur bo'lmasligi sababli ular ko`proq xatoga yo'l qo'yadilar. O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq hozir mazkur ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo'naltirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan. E. A. Klimov kasbga yo'naltirish uchun kasb turlarini "inson-tabiat", "inson-texnika", "inson-inson", "inson-badiiy obraz", "inson belgilar tizimi"

singari komplekslarni tavsiya qiladi. Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullaridan yana biri – ko'rsatmali vositalar, ya'ni fottsendlardan, kitoblar ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulidan, naqqoshlik va texnika to'garagi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashkari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qizikish uyg'otish mumkin. Kasb tanlashda o'spirin yigit qizlarda qator maqsadlar vujudga kelishi mumkin. Dastlabki maqsad – bosh maqsad deb ataladi va umumxalq mehnatiga o'z ulushimni qo'sha olamanmi?, qanday inson bo`lib yetishaman? hayot va faoliyat ideallari nimalar bo'lishi lozim? degan fikrlardan iborat bo`ladi. Bundan tashqari yaqin va yaqqol maqsadlar ham mavjud. Ilk o'spirinlik yoshida inson uchun eng muhim xissiyot – sevgi vujudga keladi. U o'rtoqlik, do'stlik tuyg'ulari zamirida paydo bo`ladi. O'spirinlik davrida vujudga keladigan his – tuyg'ularni to`g`ri idora etish, yigit va qizlarga sevgi munosabatlarining naqadar nozikligini bo'lajak oilaning baxti haqidagi tushunchalarni to`g`ri anglatish yaxshi natija beradi. O'qituvchilar va ota – onalar o'spirin yigit va qizlarga sevgining ikki turi – shaxvoniy tuyg'u zamirida vujudga keladigan beqaror sevgi va chinakam do'stlik, insoniy munosabatlar asosida paydo bo`ladigan haqiqiy sevgi borligini tushuntirishlari lozim. O'spirinlarni turmush qurishga tayyorlashda maktab bilan oilaning hamkorligi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. O'spirinlarga oila qurish haqida tushuncha berishda baxtli, tinch-totuv yashash, bir-biriga ishonch, sadoqat bo'lishi kerakligini uqtirish bilan birga ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin bo`lgan qiyinchiliklardan ham ogohlantirish kerak O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlardir. O'z-o'zini hurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan ibrat, Demak,

yuqorida ko’rsatib o’tilganidek, shaxsning erta o’spirinlikdagi eng muhim hislatlaridan biri o’z-o’zini, hurmatlash, o’z-o’ziga baho berish hamda uzviy shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O’spirinlar o’zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O’z-o’zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma’naviy psixologik qiyofasini shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va na’munaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o’g`il bolalar, qahramonlik, yaxshi ota, o’qituvchi, vrach yoki badiiy asar haqida kinofilmdagi obrazlarni o’zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va hokazo. O’zaro munosabat va emotsional hayot o’z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o’spirinlar o’zi hal qila olmaydi. Bu masalani o’spirinning otaonasi, o’z tengqurlari, o’qituvchilar ishtirokida ularning qo’llabquvvatlashida hal qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1E.G’oziyev.Yosh davrlari psixologiyasi .
- T.: O’qituvchi, 1994.- 144-145b. 2. E.G’oziyev. Oliy maktab psixologiyasi .
- T.: 1997-y. 3. G’oziev E. Psixologiya.
T., O`qituvchi, 1994 yil 4. Baratov Sh.
O`quvchi shaxsini o`rganish usullari.
T., 1995 yil